


**BUILDERS OF THE FUTURE**journal homepage:
<https://kelajakbunyodkori.uz/>**THE DEVELOPMENT OF TRANSLATION STUDIES IN AFGHANISTAN AND ITS ROLE IN SOCIETAL PROGRESS****Diyora Rakhmatullayeva***“Translation Studies, Linguistics, and International Journalism” Graduate School**1st-year student**Tashkent State University of Oriental Studies*diyorarahmatullayeva2007@gmail.com*Tashkent, Uzbekistan***Kh. Uktamova***Senior Lecturer**Graduate School of Iranian and Afghan Studies**Tashkent State University of Oriental Studies, PhD**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: translation studies, translation process, cultural relations, professional translators, education system, cultural development, international cooperation.

Received: 25.03.26**Accepted:** 26.03.26**Published:** 27.03.26

Abstract: This article examines the development of translation studies in Afghanistan and its significance in societal life. It analyzes the impact of literary, religious, and scientific works translated from foreign languages into Dari and Pashto on cultural and educational development. Additionally, the article provides a brief overview of existing challenges in the field and prospects for its future.

AFG‘ONISTONDA TARJIMASHUNOSLIK SOHASINING RIVOJLANISHI VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI**Diyora Raxmatullayeva***1-bosqich talabasi**“Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika” oliy maktabi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*diyorarahmatullayeva2007@gmail.com**X. Uktamova***TDSHU, Eronshunoslik va afg‘onshunoslik oliy maktabi katta o‘qituvchisi, PhD**Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit soʻzlar: tarjimashunoslik, tarjima jarayoni, madaniy aloqalar, professional tarjimonlar, taʼlim tizimi, madaniy taraqqiyot, xalqaro hamkorlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Afgʻonistonda tarjimashunoslik sohasining rivojlanishi va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati yoritiladi. Chet tillaridan dariy va pashtu tillariga tarjima qilingan badiiy, diniy va ilmiy asarlarning madaniy hamda taʼlimiy rivojlanishga taʼsiri tahlil qilinadi. Shuningdek, sohada mavjud muammolar va istiqbollar haqida qisqacha xulosa beriladi.

РАЗВИТИЕ ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЯ В АФГАНИСТАНЕ И ЕГО РОЛЬ В ОБЩЕСТВЕННОМ РАЗВИТИИ

Диёра Рахматуллаева

Студентка 1 курса

Высшая школа «Переводоведение, лингвистика и международная журналистика»

Ташкентский государственный университет востоковедения

diyorarahmatullayeva2007@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

Х. Уктамова

Старший преподаватель

Высшей школы иранских и афганских исследований

Ташкентского государственного университета востоковедения, PhD

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: переводоведение, процесс перевода, культурные связи, профессиональные переводчики, система образования, культурное развитие, международное сотрудничество.

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие переводоведения в Афганистане и его значение в общественной жизни. Анализируется влияние художественных, религиозных и научных произведений, переведённых с иностранных языков на дарийский и пуштунский, на культурное и образовательное развитие. Также приводится краткий обзор существующих проблем в этой области и перспектив её дальнейшего развития.

Kirish. Tarjima – bu nafaqat bir tildan ikkinchisiga soʻzlarni oʻtkazish, balki gʻoya, madaniy qadriyat va ilmiy bilimlarni boshqa jamiyatga yetkazish vositasidir. Afgʻoniston koʻp millatli va koʻp tilli mamlakat boʻlgani sababli tarjima bu yerda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Dariy va pashtu tillari mamlakatning asosiy tillari boʻlib, koʻplab chet tillaridagi asarlar aynan shu tillarga tarjima qilinadi. Tarjima orqali afgʻon xalqi jahon adabiyoti, ilm-fan yutuqlari va zamonaviy gʻoyalar bilan tanishadi.

Afgʻonistonda tarjimashunoslikning shakllanishi uzoq tarixiy jarayon natijasidir. Uni aniq bir shaxs boshlab bergan deb aytish qiyin, chunki tarjima faoliyati turli davrlarda turli olim va hukmdorlar homiyligida rivojlangan. Afgʻoniston hududi qadimdan turli sivilizatsiyalar kesishgan

maskan bo'lgan. Bu yerda yunon, hind, fors va arab madaniyatlari o'zaro ta'sir qilgan. Ayniqsa, islom davrida ilm-fan rivojlanishi bilan tarjima faoliyati kuchaydi. Bu jarayonda Abu Rayhon Beruniy muhim o'rin tutadi. U Hindistonda yashab, sanskrit tilini o'rgangan va hindlarning ilmiy hamda falsafiy asarlarini arab tiliga tarjima qilgan. Beruniy tarjima jarayonida nafaqat matnni ko'chirgan, balki tushuntirish va izohlar bilan boyitgan. Bu esa ilmiy tarjimaning mukammal uslubini shakllantirishga yordam bergan. Shuningdek, Mahmud G'aznaviy davrida G'azna shahri yirik ilmiy markazga aylangan. Uning saroyida ko'plab olim va shoirlar faoliyat yuritgan. Turli tillardagi asarlar tarjima qilingan va ilmiy almashinuv kuchaygan. Bu davr tarjima madaniyatining mustahkamlanishida muhim bosqich bo'lgan.

Afg'oniston hududi qadimdan turli sivilizatsiyalar yo'li bo'lgan. Buyuk Ipak yo'li orqali bu yerga savdo-sotiq bilan birga madaniy va ilmiy almashinuv ham ro'y bergan. Islom dini kirib kelgach, arab tili ilm va din tili sifatida keng tarqaldi. Shu davrda ko'plab diniy, falsafiy va ilmiy asarlar arab tilidan klassik dariy tili ga tarjima qilingan.

O'rta asrlarda madrasalarda tarjima faoliyati birmuncha rivojlandi. Diniy kitoblar bilan bir qatorda, mantiq, falsafa, tibbiyot va astronomiyaga oid asarlar ham tarjima qilinib, keng auditoriyaga yetkazila boshlandi. Bu jarayon ilmiy bilimlarning kengayishiga va madaniyatning rivojlanishiga xizmat qildi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afg'onistonda tarjima sohasi biroz sustlashgani kuzatildi. Siyosiy beqarorlik va urushlar natijasida ilmiy faoliyatga e'tibor kamaydi. Shunga qaramay, tarjima jarayoni butunlay to'xtamadi, balki uni davom ettirgan olim va tarjimonlar xalq uchun bilim va madaniyatni saqlab qoldi.

Zamonaviy tarjimashunoslik Afg'onistonda XX asr boshlarida shakllana boshladi. Bu davrda matbuot va ta'lim tizimi rivojlandi.

XX asr davomida universitetlar ochilishi, xususan Kobul universiteti tashkil etilishi bilan tarjima ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. Chet tillaridan darsliklar, ilmiy adabiyotlar va badiiy asarlar tarjima qilindi.

Afg'onistonda tarjima sohasida faoliyat yuritgan va mashhur bo'lgan tarjimonlar ko'plab tarixiy va zamonaviy shaxslarni o'z ichiga oladi. Ular asosan ilmiy, adabiy va diniy asarlarni tarjima qilish orqali afg'on madaniyati va ilm-faniga katta hissa qo'shgan. Tarjima orqali afg'on xalqi jahon adabiyoti, ilm-fan yutuqlari va zamonaviy g'oyalar bilan tanishadi. Bu jarayonda tarix davomida bir qator mashhur tarjimonlar faoliyat yuritgan.

XX asr boshlarida Afg'onistonda zamonaviy tarjima harakatini boshlab bergan shaxslardan biri — Mahmud Tarzi (1865–1933) hisoblanadi. U turk va fransuz tillaridan siyosiy, tarixiy hamda adabiy asarlarni dariy tiliga tarjima qilgan. Jumladan, u Robinzon Kruzo (Daniel Defoe) asarini asl ingliz tilidan emas, balki turk tilidan dariy tiliga tarjima qilib, afg'on kitobxonlarini G'arb adabiyoti

bilan tanishtirishga muhim hissa qo‘shgan. Tarzi tarjimalari orqali Afg‘onistonga zamonaviy g‘oyalar kirib keldi va xalqning dunyoqarashi kengaydi. Shuningdek, u 1911-yilda Kobulda Seraj al-Ahbar (Yangiliklar mash‘ali”) nomli gazetani tashkil etib, unda tarjima qilingan maqolalar va ilmiy materiallarni keng jamoatchilikka yetkazgan. Shu sababli Mahmud Tarzi Afg‘onistonda tarjima faoliyatini rivojlantirgan hamda zamonaviy tarjimashunoslikning poydevorini yaratgan shaxs sifatida e‘tirof etiladi .

Tarixchi va adabiyotshunos Abdulhay Habibi (1910–1984) ham tarjima faoliyatida muhim o‘rin tutadi. U tarixiy va adabiy asarlarni tarjima qilgan, shuningdek, fors va arab tillaridan ilmiy maqolalar va tarixiy hujjatlarni ham o‘girib, Afg‘oniston madaniy merosini saqlash va rivojlantirishga xizmat qilgan. Habibi tarjimalari orqali afg‘on talabalari va olimlari dunyo ilm-fani bilan tanishish imkoniga ega bo‘lgan .

Shoir va yozuvchi Xalilullah Xalili (1907–1987) G‘arb adabiyoti va she‘riyatining ayrim asarlarini dariy va pushtu tillariga tarjima qilgan. Jumladan, u “Karmen” (Prosper Merime, 1845-yilda fransuz tilida) novellasini tarjima qilgan. Uning tarjimalari orqali afg‘on adabiyoti va jahon adabiyoti o‘rtasida mustahkam ko‘prik yaratildi va yosh avlodda madaniyat hamda tilga qiziqish uyg‘ondi .

Sayd Bahouddin Majrouh (1928–1988) G‘arb falsafiy va ilmiy adabiyotlarini tarjima qilgan. U tarjima orqali talabalarga murakkab ilmiy va falsafiy matnlarni tushunish imkonini yaratdi, shuningdek, ilmiy tarjimashunoslikni rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi. Ayniqsa, Majrouhning “Falsafaga kirish” (1950) va “Mantiq va tanqidiy fikrlash” (1960) asarlari talabalarga nazariy va mantiqiy bilimlarni o‘z ona tilida o‘rganishga xizmat qilgan .

Chet el adabiyoti Afg‘on jamiyatining ma‘naviy hayotini boyitishda muhim rol o‘ynadi. Jumladan, Viktor Gyugoning “Baxtsizlar” asari adolat, inson huquqlari va mehr-shafqat mavzularini yoritib, o‘quvchilarda ijtimoiy tenglik va rahm-shafqat tuyg‘ularini kuchaytirdi. Ushbu asar Afg‘onistonda dariy va pushtu tillariga turli davrlarda tarjima qilingan. Dariy tilidagi mashhur tarjima Eronlik tarjimon Huseyn Quli Musta‘on tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, 1950-1960-yillarda Kobulda qisqartirilgan variantlari ham chop etilgan. Pushtu tilidagi tarjima esa Qiyomuddin Xodim tomonidan amalga oshirilib, xalq tushunadigan sodda va ravon tilda taqdim etilgan. Asar mavzulari, xususan kambag‘allik va ochlikka qarshi kurash, qonun va vijdon o‘rtasidagi ziddiyat hamda insonning ma‘naviy yuksalishi afg‘on o‘quvchilari uchun ayni paytda ahamiyatli bo‘ldi .

O‘rta asrlarda Afg‘onistonda madrasalarda tarjima faoliyati muhim rol o‘ynagan. Arab tilidan tarjima qilingan Qur‘on tafsirlari, hadislar va fiqhga oid kitoblar asosan madrasalardagi ulamolar va diniy olimlar tomonidan amalga oshirilgan (VIII–XV-asrlar). Ushbu tarjimalar diniy bilimlarni keng auditoriyaga yetkazdi va diniy savodxonlikni oshirishga xizmat qildi. Shuningdek, tibbiyot, muhandislik, iqtisodiyot va siyosatshunoslikka oid ilmiy kitoblar XV–XIX-asrlarda ulug‘ ilm-fan

markazlaridagi olimlar va tarjimonlar tomonidan tarjima qilinib, oliy ta'lim tizimining rivojlanishiga yordam berdi. Bu jarayon orqali talabalar chet tillarni bilmagan holda ham zamonaviy ilmiy bilimlardan foydalanish imkoniga ega bo'ldilar.

Badiiy tarjima xalqlar o'rtasida o'zaro ishonch va madaniy yaqinlik o'rnatishning eng samarali vositasi bo'lib kelgan. Xususan, o'zbek mumtoz adabiyotining ikki buyuk ustuni — Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining dariy tiliga tarjima qilinishi Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasidagi ma'naviy rishtalarni mustahkamlashda muhim burilish yasadi.

Alisher Navoiy ijodi asrlar davomida dariy zabon xalqlar adabiy muhit bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Biroq, uning turkiy tildagi durdonalarining dariy tiliga o'girilishi Afg'oniston va unga tutash hududlardagi kitobxonlar uchun yangi ufqlar ochdi. Muhammad Yaqub Shofiy tomonidan Navoiyning falsafiy-didaktik asari — “Mahbub ul-qulub” dariy tiliga 1950–1960-yillarda mahorat bilan tarjima qilindi. Ushbu tarjima shoirning ijtimoiy qarashlarini keng omma orasida ommalashishiga xizmat qildi .

Shuningdek, G'ulom Hazrat Ibrohimiy kabi ijodkorlar Navoiy g'azaliyotini dariy tilining nozik qirralari bilan boyitib, o'zbek va afg'on xalqlari o'rtasidagi badiiy mushtaraklikni ko'rsatib berishdi .

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari jahon adabiyotidagi eng nodir manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu asarning dariy tilidagi tarjimalari mintaqa tarixini o'rganishda asosiy manbaga aylangan. Asarning ilk va eng mashhur klassik tarjimasi Abdurahim Xoni Xonon nomi bilan bog'liq bo'lsa, zamonaviy davrda Shoh Ali Akbar Shahrisoniy kabi olimlar “Boburnoma”ning dariy tilidagi talqinlari va ilmiy tadqiqotlari ustida samarali mehnat qilishdi. Bu sa'y-harakatlar natijasida dariy tilida so'zlashuvchi aholi Boburning nafaqat buyuk hukmdor, balki nozikta'b adib va samimiy inson sifatidagi qiyofasini kashf etdi. Tarjima qilingan bu asarlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ular o'zbek va afg'on xalqlari o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash bilan birga, umumiy mintaqaviy o'zlikni anglashga yordam bermoqda. Navoiyning insonparvarlik g'oyalari va Boburning hayotiy haqiqatlari tillar aro ko'chib, milliy chegaralardan oshib, umuminsoniy merosga aylandi .

Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik” romani esa urushning fojiviy oqibatlarini va tinchlikning qadriyatini tushunishga yordam berdi. To'liq pushtu tarjimasi Doktor Latif Bahand tomonidan rus tilidan amalga oshirilib, 2012-yilda Kobulda nashr etildi. Bu tarjima Afg'oniston madaniy hayotida muhim voqea bo'ldi, chunki ilgari kitobxonlar asarni asosan dariy yoki ingliz tillari orqali mutolaa qilgan. Dariy tilida esa Eronlik tarjimonlar, masalan Soroush Habibi va Etemadzadeh, tomonidan qilingan variantlar keng tarqalgan. Shu tariqa, chet el adabiyoti Afg'onistonda ijtimoiy ongini rivojlantirish, ilm-fan va madaniyatga bo'lgan qiziqishni kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etdi .

Afgʻonistonda mashhur asarlarning boshqa tillarga tarjima qilinishi mamlakat adabiyotining xalqaro maydonga chiqishida muhim omil boʻldi. Ayniqsa, pushtu va dariy tillaridagi mumtoz sheʼriyat namunalari XX asrdan boshlab ingliz, rus, fransuz, nemis, urdu va turk tillariga tarjima qilina boshlandi. Mumtoz adabiyot vakillari — Xushholxon Hattak va Abdurahmon Rahmonbobo sheʼrlari Yevropa va Osiyo tillariga oʻgirilib, ilmiy-adabiy toʻplamlarda nashr etilgan. Shuningdek, Xalilulloh Xaliliy ijodi ham arab va ingliz tillariga tarjima qilinib, Afgʻoniston sheʼriyatining badiiy salohiyatini namoyish etgan.

Afgʻonistonda tarjima faoliyati tarixan kuchli anʼanaga ega boʻlib, tarjimonlar jamiyatning ilmiy, madaniy va ijtimoiy hayotini boyitishda muhim rol oʻynagan. Bugungi kunda ham tarjima sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar mavjud boʻlib, ular xorijiy asarlarni dariy va pashtu tillariga tarjima qilish orqali afgʻon xalqi uchun jahon adabiyoti va ilmiy merosni ochib bermoqda.

Hozirgi davrda ham tarjima faoliyati davom etmoqda. Masalan, shifokor va ilmiy tarjimon Abdulhamid Bahij (1930-yilda tugʻ.) ingliz tilidan dariy va pashtu tillariga tibbiyot, ilmiy lugʻatlar va madaniy mavzudagi kitoblarni tarjima qilib kelmoqda. U Afgʻoniston ilmiy tarjimasining rivojiga katta hissa qoʻshmoqda va tarjimashunoslikning bugungi kunda ham faol rivojlanishida muhim rol oʻynamoqda. Bahij tarjima qilgan asarlaridan biri — “Medical Terminology in English and Dari” (“Ingliz va dariy tibbiyot terminologiyasi”) kitobi tarjimasi boʻlib, u tibbiyot talabalari va mutaxassislari uchun muhim manba hisoblanadi. Ushbu tarjima sogʻliqni saqlash sohasidagi murakkab atamalarni mahalliy tilga mos va aniq yetkazishga xizmat qiladi.

Sabavun Gahiz — akademik tarjimon sifatida ilmiy maqolalar va jahon tadqiqot materiallarini tarjima qiladi. U tarjima jarayonida tilning ilmiy-uslubiy xususiyatlarini hisobga oladi. Gahiz tarjima qilgan asarlardan biri — “Research Methods in Social Sciences” (“Ijtimoiy fanlarda tadqiqot metodlari”, 2003) boʻlib, bu tarjima afgʻon talabalariga xar hil metodologiyalarni oʻz ona tilida tushunishga yordam beradi.

Shabnam — mustaqil tarjimon boʻlib, u ingliz tilidan dariy tiliga adabiy va jurnalistik matnlarni tarjima qiladi. Uning tarjimalari asosan onlayn nashrlarda va ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqaladi. Shabnam tarjima qilgan badiiy asarlardan biri — “The Alchemist” (“Alximik”, 1988) romanining qisqargan yoki adaptatsiyalangan tarjimasi boʻlib, u afgʻon oʻquvchilari orasida juda mashhur boʻlgan. Ushbu tarjima orqali yoshlar falsafiy, motivatsion va hayotiy gʻoyalar bilan tanishadi.

Muhammad Nurzay professional tarjimon boʻlib, rasmiy hujjatlar, biznes va huquqshunoslik mavzularidagi matnlarni tarjima qiladi. Nurzay “International Trade Agreements” (“Xalqaro savdo shartnomalari”, 2005) ga oid rasmiy hujjatlar tarjima qilgan, asar iqtisodiyot va siyosat bilan shugʻullanuvchi yoshlar uchun zarur bilim manbai hisoblanadi.

Ibadulla Orife — tarjamada madaniy kontekstni chuqur his qiluvchi tarjimon bo‘lib, u ingliz-pashtu va pashtu-dariy yo‘nalishida yetakchi tarjimonlar qatoriga kiradi. Orife tarjima qilgan asarlardan biri — “Cultural Anthropology” (“Madaniy antropologiya”, kitob 2004-yilda nashr qilingan) bo‘lib, u ingliz tilidan pashtu tiliga tarjima qilingan. Ushbu tarjima ijtimoiy fanlar talabalari uchun zarur bilimni mahalliy tilga mos yetkazishga xizmat qiladi.

Ushbu tarjimonlar faoliyati orqali tarjima Afg‘onistonda nafaqat matnni boshqa tilga o‘girish vositasi, balki xalqaro madaniy, ilmiy va ma‘naviy aloqalarni rivojlantiruvchi muhim vosita sifatida shakllangan. Tarjima orqali afg‘on xalqi jahon adabiyoti, ilm-fan va falsafiy g‘oyalar bilan tanishadi, madaniy almashinuv va bilim sohasida taraqqiyotga erishadi.

Demak, Afg‘onistonda tarjimashunoslik birgina shaxs tomonidan emas, balki turli tarixiy davrlarda yashagan olim va ziyolilar faoliyati orqali shakllangan. Ilk ilmiy tarjimalar Beruniy davridan boshlangan bo‘lsa, zamonaviy tarjimashunoslik harakati Mahmud Tarzi faoliyati bilan tizimli tus olgan.

Tarjima nafaqat adabiy yoki ilmiy asarlar bilan cheklanmaydi, balki tarixiy, siyosiy va diniy hujjatlarni ham jamiyatga yetkazishda muhim vositadir. Shu sababli, tarjimashunoslik Afg‘oniston madaniyati va ilmiy hayoti uchun strategik soha sifatida e‘tiborga loyiqdir.

Tarjima orqali afg‘on jamiyati dunyo bilan bog‘lanadi. Xorijiy serial va filmlarning dublyaj qilinishi ham bu sohaning amaliy rivojiga misol bo‘la oladi. Internet va raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan tarjima faoliyati yanada kengaymoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent, 1978.
2. Rahmonov Sh. Afg‘oniston adabiyoti tarixi. Toshkent: Sharq, 2005.
3. Navoiy, Alisher. Mahbub ul-qulub. Toshkent: Sharq, 1950–1960.
4. G‘ofurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. — Toshkent, Tafakkur bo‘stoni, 2012.
5. Habibi, A. Tarixiy asarlar va tarjimalar. — Kobul, Afg‘oniston Milliy Nashriyoti, 1975